

YOSHLAR SIYOSATINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH, TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA DAVLAT UCHUN YANGI AVLOD KADRLARINI TAYYORLASH

Najmiddinova Sarvara Nodirbekovna

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish, ta'lim tizimini takomillashtirish hamda zamonaviy talablarga javob beradigan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalalari tahlil qilingan. Mazkur maqolada yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyati haqida so'z borgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish zarurligi asoslab berilgan. Maqolada yoshlar siyosati, ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash jarayonining o'zaro uzviy bog'liqligi ochib berilib, ushbu yo'nalishlarda samaradorlikni oshirish bo'yicha muhim taklif va xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosati, ta'lim tizimi, innovatsiya, kadrlar tayyorlash, siyosiy faollik, zamonaviy ta'lim, tadbirkorlik.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы эффективной реализации молодежной политики в Узбекистане, совершенствования системы образования и подготовки нового поколения специалистов, отвечающих современным требованиям. Особое внимание уделено повышению социально-политической активности молодежи, механизмам их поддержки, а также значению проводимых реформ в сфере образования. Подчеркивается важность развития практических навыков, внедрения инновационных подходов и активного вовлечения молодежи в предпринимательскую деятельность. В работе показана взаимосвязь молодежной политики, системы образования и процесса подготовки кадров, а также предложены практические рекомендации по повышению их эффективности.

Ключевые слова: молодежная политика, образование, инновации, подготовка кадров, политическая активность, современное образование, предпринимательство.

Annotation. This article explores the effective implementation of youth policy in Uzbekistan, the improvement of the education system, and the training of a new generation of professionals who meet modern demands. It focuses on enhancing young people's socio-political engagement, the mechanisms that support them, and the importance of ongoing reforms in education. The paper highlights the need to develop practical skills, introduce innovative approaches, and actively involve youth in entrepreneurship. It also examines the close connection between youth policy, the education system, and workforce development, offering practical recommendations to improve their effectiveness.

Keywords: *youth policy, education, innovation, workforce development, political engagement, modern education, entrepreneurship.*

Kirish

Bugungi kunda dunyo jadal bilan rivojlanayotgan bir paytda har bir davlat o'z kelajagini aynan yoshlar bilan bog'laydi. Yurtboshimizning "Farzandlari bilimli, iste'dodli, o'zining kuchi va salohiyatiga ishonib, oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqboli, albatta, yorug' bo'ladi," degan fikrlari bejiz aytilmagan. Chunki bugungi yoshlar ertangi jamiyatni boshqaradigan, muhim qarorlar qabul qiladigan va taraqqiyot yo'lini belgilaydigan asosiy kuchdir.

O'zbekiston aholisi tarkibida yoshlar ulushi yuqori bo'lib, bu katta imkoniyat ham, katta mas'uliyat hamdir. Agar yoshlar to'g'ri yo'naltirilsa, ularga sifatli ta'lim berilsa va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratilsa, mamlakat taraqqiyoti tezlashadi. Aks holda esa bu imkoniyat boy berilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, bugungi globallashuv davrida faqat bilimli bo'lish yetarli emas. Yoshlar zamonaviy fikrlash, innovatsion yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Shu sababli yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish, ta'lim tizimini takomillashtirish hamda yangi avlod kadrlarini tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlar siyosati yangi bosqichga ko'tarildi. Yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni qo'llab-quvvatlash va jamiyatdagi rolini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada har bir hududlarda tashkil etilgan jamoat birlashmalari, yoshlar tashkilotlari muhim o'rin tutmoqda. Bulardan biri Yoshlar ishlari agentligidir. Agentlik tomonidan yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish, ularni kasb-hunar bilan ta'minlash va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, yoshlar uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlar, startap dasturlari va qizlar uchun yaratilgan online platformalar hamda kasbga o'qitish kurslari ularning mustaqil hayot boshlashiga katta yordam bermoqda.

Shuningdek, O'zbekiston yoshlar ittifoqi yoshlar bilan ishlashda eng keng qamrovli tashkilotlardan biri hisoblanadi. Ushbu tashkilot tomonidan turli tanlovlar, forumlar va loyihalar tashkil etilib, yoshlarning iqtidorini namoyon etishiga imkon yaratmoqda. Ushbu tashkilot ham 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yosh o'g'il-qizlarni o'zlarini har sohada namoyon etishlari uchun muhim rol o'ynaydi.

Yana bir tashkilotlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar Parlamentidir. Yoshlar Parlamenti yoshlarning siyosat maydonidagi mahurat maktabi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu tashkilot 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan o'z sohasining mutaxassislari, xalqaro va milliy mukofot va yutuqlarga ega bo'lgan yoshlarni qamrab oladi. Bu siyosat maydonida ular Qonunchilik palatasi vakolatlariga kiradigan barcha vazifalarni "kichik deputat" sifatida amalga oshirishadi.

Jamiyat rivojida yoshlarning siyosiy faolligi alohida ahamiyatga ega. Chunki faol yoshlar — bu ongli fuqarolar, mas’uliyatli liderlar va kelajakdagi islohotchilar demakdir.

Bu borada Yoshlar parlamenti yoshlar uchun muhim platforma vazifasini bajarmoqda. Bu yerda yoshlar o’z muammolarini ochiq muhokama qiladi, qonunchilik tashabbuslari bilan chiqadi va davlat boshqaruvi jarayonlarida ishtirok etadi. Bu esa ularning siyosiy savodxonligini oshiradi.

Shuningdek, Yosh siyosatchilar klubi yoshlar orasida liderlik va tahliliy fikrlashni rivojlantirmoqda. Debatlar, muhokamalar va treninglar orqali yoshlar o’z fikrini asoslab berishni o’rganadi.

Bugungi yoshlar passiv kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanmoqda. Bu esa jamiyatda demokratik muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta’lim tizimi — har qanday davlatning rivojlanish asosidir. Bejizga prezidentimiz “Ta’limni tarbiyadan tarbiyani ta’limdan ajratib bo’lmaydi”, deya ta’kidlamaganlar. Chunki aynan ta’lim orqali kelajak kadrlari shakllanadi. Shu sababli O’zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda ta’limda raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Onlayn platformalar, interaktiv metodlar va zamonaviy o’qitish usullari ta’lim sifatini oshirmoqda. Shu bilan birga, xorijiy tillarni o’rganish, IT ko’nikmalarini rivojlantirish va amaliy bilimlarga e’tibor kuchaytirilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bugungi mehnat bozori faqat diplomga emas, balki real ko’nikmalarga qaraydi. Shu sababli dual ta’lim tizimi, amaliyot dasturlari va stajirovkalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada yurtboshimizning farmoni bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025yil 16-yanvardagi 14-son Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida qarorida dual ta’limning maqsadi sifatida quyidagilar belgilandi:

- talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash;
- talabalarda ta’lim olayotgan ta’lim yo’nalishi (mutaxassisligi) bo’yicha amaliy ko’nikmalarni shakllantirish;
- talabalar uchun tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, korxonalarda ishlab chiqarish (shuningdek, tashkiliy-boshqaruv) faoliyatiga oid tajribalarni o’rganishni tashkil etish;
- talabalarning kasbiy va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirish;
- bitiruvchilarning zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlashi uchun zarur amaliy ko’nikma va malakalarga ega bo’lishini ta’minlash;
- oliy ta’lim tashkiloti va korxonada o’qitish, shuningdek, oliy ta’lim tashkilotining o’quv jarayoniga yangi o’qitish texnologiyalarini joriy etish orqali talabalarning raqobatbardoshligini oshirish.

Endilikda talaba faqat bilim oluvchi emas, balki muammoni hal qiluvchi, innovatsiya yaratuvchi shaxs bo’lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish, ta'lim tizimini takomillashtirish va yangi avlod kadrlarini tayyorlash — bir-biri bilan chambarchas bog'liq jarayonlardir. Bu uch yo'nalish uyg'unlashgandagina mamlakat barqaror rivojlanadi.

Bugungi yoshlar katta imkoniyatlarga ega. Ammo bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish ham muhim. Har bir yosh o'z ustida ishlashi, bilim olishi va jamiyat hayotida faol bo'lishi kerak. Zero, bugungi yosh — bu ertangi lider, bugungi imkoniyat — ertangi muvaffaqiyat. Yoshlar salohiyatiga kiritilgan sarmoya — davlat kelajagiga kiritilgan eng katta investitsiyadir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021. – 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni. O'RQ-406-son, 2016-yil 14-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi 14-son “Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston – 2030” strategiyasi.